



Qo'ng'Irotlar Davrida Amalga Oshirilgan Siyosiy O'Zgarishlar

Bakurddiyeva Qunduz Quvondiq qizi

Ma'mun universiteti Nodavlat Ta'lim Muassasasi Iqtisodiyot va gumanitar fanlar fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi

g-mail: yakubovakilara@gmail.com

Ibodullayeva Xolidaxon Elyorjon qizi

Ma'mun universiteti Nodavlat Ta'lim Muassasasi Iqtisodiyot va gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

g-mail: ibodullayevaxolidaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Xiva xonligida XVIII asrda Qo'ng'irotlar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va harbiy yurishlar masalalari bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan adabiyotlar, arxiv hujjatlari va yozma manbalarda qayd qilingan ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlilidan kelib chiqqan holatda mantiqiy xulosalar asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Muhammad Amin inoq, Shomurodbek, Abdukarimbek, Shoniyozbek, Muhammad Rizobek, Bobobek, Rahimberdibek, Ollaberdi hudaychi, Abdurahmonboy, Boynazarboy, Eshqobilboy, Niyozmuhammadboy, Oqimxon, Abdulazizxon, Abdullaxon, Ortiq G'oziyxon, Yodgorxon, Po'lat G'oziyxon, Abdulfoyxon, Abulg'ozii IV va V, Muhammad Yusuf Bayoniy, Muhammad Rahmxon, A.L.Kun

Political Changes Implemented During The Call Period

Bakurddiyeva Kunduz Kuvondik's Qizi

Teacher of the Department of History, Faculty of Economics and Humanities, Mamun University
Non-State Educational Institution

g-mail: yakubovakilara@gmail.com

Ibodullayeva Kholidakhon Elyorjon Qizi

Mamun University Non-State Educational Institution, Faculty of Economics and Humanities,
History major

g-mail: ibodullayevaxolidaxon@gmail.com

Abstract: This article is based on the theoretical-comparative analysis of the information recorded in scientifically based literature, archival documents and written sources on the issues of socio-political changes and military campaigns carried out by the Khiva Khanate in the 18th century by the Kungirat dynasty. It was explained based on logical conclusions.

Keywords: Muhammad Amin inoq, Shomurodbek, Abdukarimbek, Shaniyazbek, Muhammad Rizobek, Bobobek, Rahimberdibek, Ollaberdi Hudaychi, Abdurakhmanboy, Boynazarboy, Eshqobilboy, Niyozmuhammadboy, Akimkhan, Abdulazizkhan, Abdullahkhan, Ortiq Ghazikhan, Yodgorkhan, Polat G Azikhan, Abdulfoyzkhan, Abulghozi IV and V, Muhammad Yusuf Bayani, Muhammad Rahmkhan, A.L. Kun

Дочь Бакдурдыевой Кундуза Кувондика

Преподаватель кафедры истории экономико-гуманитарного факультета НОУ «Университет Мамун»

электронная почта: yakubovakilara@gmail.com



Ибодуллаева – дочь Холидахона Элёрджона.

НОУ «Университет Мамуна», экономико-гуманитарный факультет, специальность
«История»

электронная почта: ibodullayevaxolidaxon@gmail.com

Аннотация: Данная статья основана на теоретико-сравнительном анализе сведений, зафиксированных в научно-обоснованной литературе, архивных документах и письменных источниках по вопросам общественно-политических преобразований и военных походов, проводимых Хивинским ханством в XVIII веке Кунгиратом. династии, это было объяснено на основе логических выводов.

Ключевые слова: Мухаммад Амин инак, Шамуродбек, Абдукаримбек, Шаниязбек, Мухаммад Ризобек, Бобобек, Рахимбердибек, Оллаберди Худайчи, Абдурахманбой, Бойназарбой, Эшқобилбой, Ниёзмухаммадбой, Акимхан, Абдулазизхан, Абдуллаххан, Ортик Газихан, Ёдгорхан, Полат Г Азихан, Абдулфайз. хан, Абулгози IV и V., Мухаммад Юсуф Баяни, Мухаммад Рамхан, А.Л. Кун

Kirish va Dolzarbli: XVIII asrda Xiva xonligida shakllangan obyektiv shart–sharoitlar siyosiy–ma’muriy boshqaruvda o‘zbeklarning qo‘ng‘irot sulolasi arboblarning mustahkam o‘rin egallashlari uchun real imkoniyatlarni yaratdi. 1763-yilda siyosiy minbarga o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i inoqi Muhammad Amin (1729–1790) ko‘tarildi[1.1959.Б.90–94.] va keyingi 150 yil davomida uning avlodlari Xiva xonligida hukmronlik qildilar. 1770-yilda o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘idan chiqqan inoq Muhammad Amin Buxoro xoni Doniyolbiy oldiga yordam so‘rab bordi. Uning bilan Buxoroga borgan 63 mahramlar orasida Avaz mirob (Munisning otasi), Shomurodbek, Abdugarimbek, Shoniyozbek, Muhammad Rizobek, Bobobek, Rahimberdibek, Ollaberdi hudaychi kabi amaldorlar, Abdurahmonboy, Boynazarboy, Eshqobilboy, Niyozmuhammadboy kabi boylar bor edi[1.1959.Б.95–97.].

Buxorodan madad kuchlari bilan qaytgan Muhammad Amin inoq Jahongirxonni taxtdan tushirdi va uning o‘rniga Bulakayni o‘tqazdi. Qisqa muddatda yovmutlar zo‘ravonligi cheklandi, ocharchilik asoratlari tugatildi va arzonchilik boshlandi. Yirik yer egalari va dehqonchilik kentlaridagi oqsoqollar hamda savdogarlardan madad olgan Muhammad Amin qo‘g‘irchoq xonlarni taxtga qo‘ysa-da, butun davlat hokimiyatini boshqarishni o‘z qo‘liga oldi[2.1960.Б.8.].

Muhammad Amin inoq vafotidan so‘ng, o‘g‘li Avaz Muhammad inoq (1790–1804) ham bir qator xonlarni (Oqimxon, Abdulazizxon, Abdullaxon, Ortiq G‘oziyxon, Yodgorxon, Po‘lat G‘oziyxon, Abdulfayzxon, Abulg‘ozi IV va V) taxtga ko‘targan bo‘lsa-da, asosan, xonlikda davlat hokimiyatini o‘z qo‘lida ushlab turdi[3.2004.Б.23.].

Metodlar va o‘rganilish darajasi: 1804-yilda taxtga o‘tirgan Avaz inoqning o‘g‘li Eltuzar (1804–1806) o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘idan birinchi bo‘lib, rasmiy ravishda xon deb e‘lon qilindi[3.2004.Б.26.]. Xivadagi madrasalardan birida ta‘lim olgan va harbiy ishlarga ko‘proq e‘tibor bergan xon Buxoro bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. Natijada, 1806- yilda amir Haydarning qo‘shinlari Xorazmga yurish boshlab, Shabboz yaqinidagi jangda Xiva qo‘shinlariga shikast yetkazdilar. Amudaryoning so‘l qirg‘og‘iga o‘tishga uringan Eltuzarxon kema ag‘darilishi natijasida cho‘kib ketdi. Xon bu vaqtda 37 yoshda edi[2.1960.Б.8.].



Muhammad Rahimxon kuchli qo'shin tuzishga va uning yordamida xonlik hududlarini kengaytirishga intildi. Muhammad Yusuf Bayoniyning guvohlik berishicha, muntazam o'tliq qo'shinlar 13 mingdan ziyod bo'lib, unda o'zbek, turkman va qoraqalpoqlar asosiy o'rinni egallardi. Navkarlarga harbiy xizmatlari uchun yer ajratib berilgan va ular soliqlardan ozod etilgandi. Xiva navkarlari 1810- yil bahoridan kech kuzgacha Janadaryo (Yangidaryo) bo'ylaridagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga tajovuz qilib turdilar.

Soliq tizimini tartibga solishga jiddiy e'tibor bergan xon davlat xazinasini to'ldirish yo'llarini izladi. Endilikda, soliqning miqdori mulkdorlarga qarashli ekin maydoni hamda olingan hosilining hajmiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Soliq to'plash ishi mahalliy hokimlar qo'lidan markaziy hukumat tasarrufiga o'tkazildi. Davlat soliqlarini yig'ish vazifasi qushbegi va mehtarga, zakot to'plash esa devonbegiga topshirildi. Fuqarolardan solg'ut usuli bilan xazinaga olinadigan daromad va xarajatlar maxsus daftarlarda qayd etilib, xonning nazorati ostiga olindi.


Munisning yozishicha, Muhammad Rahimxon I davlatni qo'lga olganidan keyin uning qarindoshi Muhammad Rizobek unga bo'ysunishdan bosh tortadi. U o'ziga tegishli odamlari bilan Qiyot qo'ng'irotidagi hovlisiga boradi. So'ngra Qipchoq qal'asini bosib olib, qal'a hokimi Ollohberdibekni o'ldiradi. U Orol hokimi To'ra Murod so'fidan xonga qarshi kurashda yordam so'radi. Xon Qipchoq qal'asiga avval Qutluq Murod inoqni yuboradi, keyin o'zi ham uni qamal qiladi. Muhammad Rizobekka Muhammad Niyozbek va Muhammad Niyoz otaliqlar madad beradilar. Bu kurashda u Orol hokimi To'ra Muroddan ham yordam oladi. Suyunbek va O'roz Alibek Oroidan yordamga kelgandilar. Muhammad Rahimxon natijasiz Xorazmga qaytadi[4.2002.B.73-74.].

1810-1811-yillarda Orolbo'yi qozoq-qoraqalpoqlari xonlikka bo'ysundirilgach, ular bilan o'lpon va soliqlar masalasida bitim tuzildi. "Muhammad Rahimxon butun nizolarni yo'qotish maqsadida, - deb yozgandi A.L.Kun, - qoraqalpoq oqsoqollari bilan shunday qarorga keldi: 1). Qoraqalpoqlar qancha yer ishlatishiga qaramasdan, har yili xonga 20 ming kichik tillo to'lab turadilar; 2). Ular xonga 2 ming askar yuboradilar; 3). Umumiy ishlarga har yili 6 ming odam beradilar. 4). Qo'ng'irotliklar va nukusliklar 2 ming tildan, xo'jayliliklar 500 kichik tilla solg'ut to'laydilar"[5.1873. № 83.B.52.].

Xonlikning chegara shaharlarida, karvon va kemalar qatnaydigan yo'llarda maxsus bojxona xizmati joriy etildi. Xonlikda ziroat, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning jonlanishi davlat xazinasini daromadining o'sishiga imkon yaratdi. Xivaga kelgan rus elchisi N.Muravyov xon xazinasining bir yillik daromadi 4 mln. So'mdan oshib ketganligi haqida ma'lumot bergandi.

Xon dastavval mamlakatdagi tarqoqlikka chek qo'yish, davlat hokimiyatini markazlashtirish va mustahkamlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb hisobladi. Odamlarning qobiliyatiga qarab ish topshiradigan xon davlat ahamiyatiga molik tadbirlarini amalga oshirish uchun o'z atrofiga ishonchli, nufuzli, ishbilarmon amaldorlar, ruhoniylar va harbiylarni to'pladi. Xiva xonligi tobeligiga o'tgan turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning badavlat va nufuzli arboblarni o'ziga yaqinlashtirib, ularga yer mulk va yuqori lavozimlar in'om etdi. Musulmon dindorlarining el-yurt orasidagi obro'e'tiborini hisobga olib, o'zini ularga yaqin tutish maqsadida payg'ambar avlodlaridan hisoblangan sayidlar qiziga uylandi. Saroyda yirik din arboblariga joy va lavozim berdi, mol-mulk in'om etdi, ko'plarini soliq va to'lovlardan ozod qildi.

Davlatni boshqarish ishlarini isloh qilish bilan jiddiy shug'ullangan Muhammad Rahimxon Abulg'ozini Bahodirxon davrida joriy etilgan boshqaruv tartibini o'zgartirdi. Xiva xonligining ma'muriy markazlari sifatida Xiva, Hazorasp, Xonqa, Gurlan, Anbar, Manoq, Shabboz, Mang'it, Qipchoq,



Qilich Niyozboy, Xo'jayli, Xitoy, Toshhovuz, Yangi Urganch, Ilonli, G'azovot belgilandi. Keyinchalik, ular qatoriga Qo'ng'iroq va Chimboy ham qo'shildi. Endi kent oqsoqollari va inoqlari o'rniga hokimlar, masjid qavmlari oqsoqollari boshqaruvi joriy etildi. Shu bilan bir qatorda ayrim joylarda urug'lar vakillaridan tayinlangan noiblar o'z qavmlarini boshqarishni davom qildirdilar. Holbuki Xiva xonligida urug'chilik munosabatlari o'lkadagi boshqa feodal davlatlarga qaraganda ancha kuchli bo'lgan[4.2002.B.74.].

Xiva xonligida mehtar, qushbegi va devonbegi lavozimlari eng yuqori hisoblanadigan bo'ldi. Ularning nazorati ostida mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy, harbiy mudofaa, diniy ishlar bilan shug'ullanuvchi markaziy boshqaruv idoralari ta'sis etildi. "Muhammad Rahimxon o'z hokimiyatini adolat niqobi ostiga yashirib, uni mustahkamlash uchun Oliy kengash ta'sis etdi. Bu kengashga turli da'vo va jinoyat ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqini berdi, to'g'rirog'i, amr qildi", - deb yozgandi N.Muravyov.

Xonning o'zi raislik qilgan Oliy kengash davlatning qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud organi vazifasini bajarar hamda unda eng nufuzli amaldorlar qatnashardilar. Ular orasida devonbegi, qushbegi, mehtardan tashqari naqib, shayxulislom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo'r, to'shakchi, oqo-og'o va boshqa amaldorlar bor edi[8.2006.B.64-80.].

Kengash qatnashchilari haftaning juma kunlari ko'rinish xonada to'planardilar. Ularga osh tortilgandan keyin, maslahat kengashi quyuq ziyofat tarzida, ba'zan kech tundan erta tonggacha davom etardi.

Tadqiqot natijalari: Muhammad Rahimxon Ko'hna Arkda zarbxona uchun bino qurdirdi va o'z nomidan oltin va kumush tangalar chiqara boshladi. Yangi pullar xonlikda tovar-pul munosabatlarini yaxshiladi va soliq to'lovlarini tartibga solishda muhim rol o'ynadi. Davlat xizmatida bo'lgan saroy a'yonlari va viloyat amaldorlari uchun lavozimiga qarab ish haqi - maosh belgilandi. Shu bilan hukmdorlarning daromad taqsimotida mavjud o'zboshimchaliklariga chek qo'yildi.

Davlat arboblari orasida o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'i vakillari mavqeyi yanada oshirilib, ularning soni ortib bordi. Yusuf Mehtar og'a o'zbeklar vakili sifatida xon saroyida bosh vazir lavozimiga tayinlandi.

1825-yil 7-mayda 50 yoshida bo'lgan Muhammad Rahimxon I vafot qildi. Uning o'rniga taxtga ko'tarilgan o'g'li Olloqulixon (1795-1842) xonlikning hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlash ishlarini davom ettirdi. Yangi xon otasiga o'xshab, Marv vohasiga 3 marta (1826, 1829, 1841), Buxoro amirligiga qarshi 7 marta katta harbiy yurishlar qildi. Natijada, Xurosondagi Jamshid qabilalarining 1200 oilasini Qilich Niyozboy arna bo'yiga ko'chirib keltirdi. 1826-yilda Xiva qo'shinlari xonning inisi Hazorasp hokimi Rahimquli boshchiligida Shimoliy Xurosonga yuborilgan Xiva qo'shinlari 123 kun safarda bo'ladi[4.2002.B.79.]. Xivaliklar Oqdarband qal'asini qamal qilib, u yerdan 100 dan ortiq oilani Qo'shko'pirdagi Zey yopi yaqiniga ko'chirib keltiradilar. Natijada, bu yerda eroniylarning Oqdarband qishlog'iga asos solinadi. Oqdarbandni bosib olgandan so'ng, xon askarlari Malikobodga keldilar. U qal'a Muzduron yaqinida joylashgan edi. Shu kuni "Qorasuv kanori va Kanafs hitori ustidan o'tib peshin chog'i Kanakush qala'asin... ihota qilib, hamul soat ul qal'a ahlin mol va ashyosi bila tasarrufg'a kirguzdi".

Ro'y berayotgan qaltis siyosiy vaziyatni e'tiborga olgan Olloqulixon Xurosonga yurish qilib, 20 ming eronliklarni bandi qilib qaytdi va ularning mehnati bilan Xiva shahrining mudofaa imkoniyatlarini



kuchaytirishga harakat qildi. Natijada, 1842-yilda Olloqulixon buyrug‘i bilan Muhammad Yoqub mehtar va Otamurod Matrizo qo‘shbegi boshchiligida Ichan qal‘aning tashqi qismida uzunligi 6614 va balandligi 4 metrli yangi mudofaa devori tiklandi[6.1997.Б.16.]. Qurilishi 30 kun davom etgan devorni Muhammadrizo Ogahiy “Hisori xush bino” deb baholab, tarix bitgandi. Endilikda, xonning Rafanik va Nurullaboy degan joydagi bog‘lari ham shahar tarkibiga kirdi. Shu davrlardan boshlab Xiva shahri hududi Dishan va Ichan qal‘a (mudofaa devorlari uzunligi 2100 m.) degan nom bilan ajratiladigan bo‘ldi.

Xivaning Dishon qal‘a devori barpo etilishi natijasida shahar mahallalari soni sezilarli daraja oshdi. Natijada, Ichan qal‘adagi 33 mahalla qatoriga yana 44 ta Dishon qal‘a mahallalari qo‘shildi. Mahalla nomlari shu yerda yashayotgan va kasbi-koriga qarab bir-biridan ajralib turgan va shu yerda yashagan katta amaldorlar nomi bilan bog‘lab aytiladigan bo‘ldi. Natijada, xivaliklar bir-birini Chitkarlar, Alakchilar, Kulollar, Miskarlar, G‘azzollar, Otamurod qushbegi, Yoqub Mehtar, Yusuf Yasovulboshi mahallasidan deb atay boshladilar. Shahar ko‘chalari soni 109 taga, masjidlar soni 120 taga va qorixonalar soni 120 taga yetdi.

Xiva shahri aholisi soni o‘shib borganligiga qaramasdan hali aholi soni judayam ko‘p deb aytish mumkin emasdi. “Xivadagi erkak-u ayollar soni 4000 dan ortiq emas. Ular, asosan, amaldorlar, dindorlar va savdogarlardan iborat. Shaharliklar orasida sartlar, forslar va o‘zbeklar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shahar atrofida yaxshi ishlangan dalalar, bog‘ va imoratlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati xon va uning amaldorlariga tegishli”.

1842-yildagi Xiva shahri va undagi ayrim yangiliklar rus sayyohi, falsafa fanlari doktori T.F.Bazinerning safar tassurotlari haqidagi maqolalarda o‘z aksini topdi.


Xiva xonligi taxtiga o‘tirgach Muhammad Amin o‘z amaldorlari tarkibida deyarlik katta o‘zgarishlar qilmadi, faqat devonbegi Erniyoz mahram o‘rniga Bekniyoz mahramni tayinladi. Bu davrda xon saroyida Rahmatullo yasovulboshi, Matniyoz devonbegi kabi yosh va sadoqatli amaldorlar ishlardilar.

1855-yil 3-sentabrda taxtga ko‘tarilgan yangi xon - 18 yashar Qutlug‘murod Abudullaxonning inisi edi. Xon turkmanlar bilan bo‘lgan urushda halok bo‘lgan amaldorlar o‘rniga yangilarini tayinladi. Vazir Muhammad Yaqub Mehtar, Bobo qushbegi va boshqa saroy a‘yonlari tavsiyasi bilan Muhammad Niyoz devonbegi, Eshniyoz yasovulboshi, Bog‘ibek ibn Rahimberdi beklarbegi va uning inisi Eltuzar inoq yangi lavozimlarga qo‘yildilar. Saroydagi o‘zgarishlar ayrim shuhratparast amaldorlarning isyoniga turtki berdi va Muhammad Niyozbiy fitnasi sabab 1856- yil 12-fevralda halok bo‘ldi. “O‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlagan Muhammad Niyozbiy taxtni egallash uchun oxirgi pastlikkacha yetib bordi. Xalq ahvoli bilan hech qanday hisoblashmay, ularni talon-toroj bo‘lishlarigacha rozi bo‘ldi va boshchilik qilmoqchi bo‘ldi”.

1863-yil mayida Sayyid Muhamadxon haj safaridan qaytgan bir guruh davresh-qalandarlar qatorida Xivaga kelgan venger olimi Vamberi bilan uchrashdi.

Sayyid Muhamadxon 1281-(1864–1865) yilda kasallanganligi sababli, 8 yil-u 8 oy taxtda o‘tirgandan keyin, 43 yoshida vafot qildi. Taxtni xonning amakisi — “Amir ul-umaro” unvoni bilan xonlikda eng yuqori mansablardan birini egallab turgan Sayyid Mahmud to‘ra egallashni niyat qilgandi. Ammo, Hasanmurod qushbegi, Rahmatullo yasovulboshi kabi arboblarning qat‘iyatliliigi bilan 1864- yil 22-sentabrda taxtga Bobojon To‘ra ko‘tarildi[7.1991.Б.189.]¹. Rasman taxtga o‘tirgandan keyingina otasining jasadi dafn qilingan xon endigina 19 yoshga to‘lgan hamda tarixda

¹ Баёний М.Ю. Шажарайи Хоразмшоҳий // “Мерос” тўпламида. – Т.: Камалак, 1991. . –Б.189.



Sayyid Muhammad Rahim “Bahodirxon Soniy” va “Feruz” nomlari bilan iz qoldirgan shaxs edi. Mazkur tarixiy voqealar haqida fikr yuritgan tarixchi Otamurod Qo‘shjonov Xiva xonlarining taxtga ko‘tarilishida mehtar, qushbegi, va yasovulboshining katta rol o‘ynaganligini qayd qilgan.

“Xon poytaxtga kelgan mahalda, hozir bo‘lganlar namoz bamdoddan chiqqan xonni qutlamoq uchun har kun ertalab saroyga yig‘ilishlari lozim edi. Mehtar va qushbegi kun bo‘yi mahkamalarida hozir bo‘lib, o‘z taxti idoralari ostidagi mahkamalardan kelgan ishlarni qabul qiladilar. Xon tomonidan beriladigan barcha farmoyishlar darhol shu yerda tasdiqlatiladi”, – deyiladi arxiv hujjatlarning birida.


Muhammad Rahim cheklanmagan hokimiyat boshlig‘i deb tan olinsa-da, uning dastlabki vaqtlarda davlatni boshqarish ishlariga e‘tiborsizlik bilan qaragan Matmurod devonbegi bilan bo‘lgan suhbatdan keyin Sirovatskiy ismli rus muxbiri quyidagilarni yozgan: “Sayyid Muhammad Rahimxon xonlikning mutlaq hokimidir. Mamlakat idorasi bilan juda kam shug‘ullanadi, ko‘pincha aysh-u ishrat bilan band. Xonning to‘rt xotini va yuz chog‘liq kanizaklari bor. Xonlikdagi yuqori amaldorlardan qushbegi va mehtar o‘lpon yig‘ish bilan shug‘ullanadilar. Ulardan keyin ma‘muriy-harbiy boshliqlar, to‘rt devonbegi turadi”.

Xonlikdagi kuchli arboblardan qatorida Muhammad Murod devonbegi, Muhammad Niyoz devonbegi, Xudoyor devonbegi, Hasanboy devonbegi, Muhammad Nazar qushbegi, Muhammad Yusuf qushbegi, Mahmud mehtar, Yaqubxo‘ja Mehtar, Polvon mirzaboshi kabi arboblardan bor edi. Devonbegilar orasida Muhammad Murod (Matmurod) nufuzli o‘rinda bo‘lib, u 1864-yilda vafot qilgan Xudoynazar devonbegi o‘rniga tayinlangandi.

O‘lkaga kirib kelayotgan chor Rossiyasi qo‘shinlari qo‘mondonlari Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi bilan sulh tuzishga erishgach, Xiva xonligini bo‘ysundirishga harakat qildilar. 1871-yilda ruslarning bir qism qo‘shinlari Kaspiy dengizi tomondan Xiva xonligining Shohqadam degan joyga kelganligi haqida xabar keldi. Natijada, xon inisi Otajon to‘rani 6 ming kishilik qo‘shinga bosh qilib, Ko‘hna Urganch tomonga yubordi. Bu yerga kelgach, Otajon to‘ra Muhammad Rahimboy ismli amaldorga o‘zbek va turkmanlardan 450 kishi ajratib, ruslardan xabar olish uchun Kaspiy tomonga yubordi. Ammo xivaliklar izlagan rus qo‘shinlaridan nom-nishon topmadilar. Kandirli quduq tarafga yuborilgan chovdir turkman otliqlari ham ruslarni yo‘liqtirmay orqaga qaytdilar.

Qo‘ng‘irotlar davrida Voha va uning atrofidagi shaharlardagi odamlar turmushida keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Endilikda, ular o‘ziga xos mustahkam imoratlar, qal‘a va istehkomlar barpo eta boshladilar. Natijada, Xiva, Yangi Urganch, Shohobod, Hazorasp kabi shaharlarda xom va pishgan g‘ishtdan hashamatli saroy va qasrlar, masjid va madrasalar barpo etildi. Osoyishta davrdan darak beruvchi bunday me‘moriy yodgorliklarning Xiva xonligi xududida ko‘plab tiklanishi saltanat qudrati oshib borayotganligi va kuchli davlat arboblari yetishib chiqqanligidan darak beruvchi holat edi.

Xiva xonligida XIX asrning boshlarida Rossiya Xiva xonligini egallashga tayyorgarlik ko‘rishni boshlaydi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman 1872-yil 12-noyabrda imperator Aleksandr II ga yozgan maktubida Xivaga qarshi urush muqarrarligini bildirdi. 1872-yil 23-noyabrda Peterburgda harbiy ministr D.Milyutin raisligida kengash bo‘lib, unda kelgusi yil bahorida Kavkaz, Orenburg va Turkiston harbiy okrugi birlashgan qo‘shinlari Xivaga qarshi hujum boshlashi haqida qaror qabul qilindi. Kengashda qatnashgan fon Kaufman 1872-yil 3-dekabrda Peterburgda uchrashgan vaqtida rejalashtirilayotgan harbiy harakatning foydali tomonlari haqida Aleksandr II ni xabardor qildi. 1872-yil 12-dekabrda imperator harbiy kengash qarorini tasdiqladi va ertasi kuni bu haqda harbiy ministr



buyruq chiqardi. “Ammo Rusiya davlati mundan burun besh marotaba Xorazm ustiga askar yuborib, alarning ba’zilari Xorazm yo’lida tashnalikdin qirilib, ba’zilari Xorazmga borib urushib, qirilib, hanuzgacha aslo zafar topa olg’onlari yo’q erdi. Bas, imperator a’zam bu bobda tamomi arkoni davlati bilan maslahat etib, ul tarafga bormoqqa qaysi yo’l yaxshiroq ekanin bilmay, lojaram (chorasiz) Xorazm ustiga to’rt tarafdin askar yubormakni iltizom (lozim ko’rmoq) etdilar”, – deb yozgandi muarrix Muhammad Yusuf Bayoniy.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Qo’ng’irotlar sulolasi davrida davlat boshqaruvida kengash joriy etildi. Shuningdek, zarbxonalar tashkil etildi. Qo’ng’irotlar boshqaruvi joriy etilgach, hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi, savdo-sotiq munosabatlarining kengayishi natijasida shahar va qishloqlar qiyofasi o’zgarib bordi. Urbanizatsiya jarayonlari minglab ko’chmanchi chorvadorlarni o’troq dehqon va hunarmandlarga aylantirdi hamda ularni yirik qishloq va shaharlar hayotiga bog’lab qo’ydi.

XIX asrning boshlarida hokimyatni to’liq egallagan Qo’ng’irot hukmdorlari qo’shni mamlakatlar bilan faol elchilik, savdo-sotiq munosabatlarini olib borganlar. Xivaning bu yo’nalishdagi faoliyati ilmiy adabiyotlarda qisman o’rganilgan bo’lsa-da, mahalliy tarixchilar tomonidan bitilgan solnomalar ma’lumotlari ilmiy muomalaga kamroq jalb etilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Ёўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер егалиги ва давлат тузилиши. Тошкент. Ўздавнашр.1959. – Б. 90–94.
2. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Т., 1960. – Б. 8.
3. Матниёзов М. Хива хонлигида яшаган халқлар ва уларнинг хонлик ижтимоий–сиёсий ҳаётида тутган ўрни ва роли (XIX аср – XX аср бошлари). 2–нашри. – Урганч, 2004. . – Б. 23.
4. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик: (XVII-XIX ва XX асрнинг бошлари). – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. –Б. 73-74.
5. Кун А.Л. Заметки о податях в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости, 1873. – № 83. – Б. 52.
6. Абдурасулов А. Хива. Тарихий-этнографик очерклар. – Т.: Ўзбекистон, 1997. . –Б.16.
7. Баёний М.Ю. Шажарайи Хоразмшоҳий // “Мерос” тўпламида. – Т.: Камалак, 1991. . –Б.189.
8. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиё давлатларида бошқарув тарихидан. – Т.:Янги аср авлоди, 2006. – Б. 64-80.